SHOISLOM SHOMUHAMEDOVNING TARJIMONLIK FAOLIYATI

Shaxribonu Yo‘ldashboyeva

TDSHU, Markaziy Osiyo xalqlari tarixi yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

E-mail: yoldoshboyevashahribonu@gmail.com

Tel: +998931353106

Ilmiy rahbar: t.f.f.d. (PhD) **Mahliyo Turdixo‘jayeva**

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20335977

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shoislom Shomuhammedovning ilmiy faoliyati, tarjimon va shoir sifatidagi faoliyati haqida batafsil ma’ lumot beriladi. Bundan tashqari uning tarjimon sifatida o‘zbek xalqining ma’naviy merosi uchun qo‘shgan hissalari, tojik, turkman, arab, fors, rus va hind tillaridan tarjima qilgan faoliyati, yangi tarjima asarlari, barchaga ahamiyatli bo‘lgan axloqiy, ma’naviy va marifiy ruhda yozilgan kitoblari haqida ham so‘z yuradi. Maqola orqali Shoislom Shomuhammedovning ko‘p yillik olib borgan ilmiy izlanishlari va faoliyat yo‘li haqida ma’lumot olishingiz mumkin. Shuningdek, “Shoxnoma”, “Umr karvoni”, “Umar Hayyom ruboiylari” singari tarjima kitoblari haqida ham ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Shoislom Shomuhammedov, tarjimonlik faoliyati, eronshunos olim, shoxnoma, Umar Hayyom ruboiylari.

Аннотация: В данной статье подробно рассматривается научная деятельность Шоислома Шомухаммедова, а также его деятельность как переводчика и поэта. Кроме того, освещается его вклад в духовное наследие узбекского народа как переводчика, его работа по переводу произведений с таджикского, туркменского, арабского, персидского, русского и индийских языков, новые переводческие труды, а также книги, написанные в нравственном, духовном и просветительском духе, имеющие важное значение для общества. Благодаря статье можно получить сведения о многолетних научных исследованиях и жизненном пути Шоислома Шомухаммедова. Также приводится информация о таких переводных произведениях, как «Шахнаме», «Караван жизни», «Рубаи Омара Хайяма».

Ключевые слова: Шоислом Шомухаммедов, переводческая деятельность, ученый-ирановед, «Шахнаме», рубаи Омара Хайяма.

Abstract: This article provides detailed information about the scientific activity of Shoislom Shomuhammedov, as well as his work as a translator and poet. In addition, it discusses his contribution to the spiritual heritage of the Uzbek people as a translator, his translations from Tajik, Turkmen, Arabic, Persian, Russian, and Indian languages, his new translated works, and books written in moral, spiritual, and educational spirit that are significant for society. Through this article, readers can learn about Shoislom Shomuhammedov’s many years of scientific research and professional career. Information is also provided about translated books such as Shahnameh, Caravan of Life, and The Rubaiyat of Omar Khayyam.

Keywords: Shoislom Shomuhammedov, translation activity, Iranian studies scholar, Shahnameh, The Rubaiyat of Omar Khayyam

Shoislom Shomuhamedov Maxmudovich – sharqshunos va eronshunos olim. U olim, shoir va tarjimon sifatida faoliyat yuritgan va mumtoz adabiyot va zamonaviy eron adabiyotlari

bo‘yicha turli tadqiqotlar yuritgan. Shuningdek, fors-tojik adabiyotlarining orasida eng durdona klassik asarlarni tarjima qilgan. Uning fors adabiyotini, asarlarini o‘rganish va targ‘ib qilishdagi sa’y harakatlari Eron jamiyati tomonidan munosib taqdirlangan. 1974-yilda Eron jamoatchiligi Shoislom Shomuhamedovni “Firdavsiy nomidagi xalqaro mukofot” bilan taqdirlaydi, 2003-yili esa Eronning prezidenti Sayyid Muhammad Hotamiy O‘zbekistonga tashrifi davomida Eron hukumatining oliy mukofotini topshirgan. Mukofot yorlig‘ida Hotamiyning quyidagi so‘zlarini o‘qish mumkin: “...Sizning fors madaniyati va adabiyotini targ‘ib etishdagi beminnat sa’y-harakatlaringizni chin dildan qadrlayman[1]”. Bu esa uning faoliyati qanchalik muhim ekanligini ko‘rsatadi. Shoislom Shomuhammedov ilmiy faoliyati orqali o‘zbek xalqining madaniy merosi uchun katta hissa qo‘shgan. U o‘z tarjima asarlari, she’rlari, hikoya to‘planmalari va o‘quv qo‘llanmalarini o‘zidan meros qoldirgan. Bu asarlari nafaqat adabiyot balki, tarix uchun ham ahamiyatlidir. “Shoislom Shomuhamedov” nomining o‘zi jami 600 dan ortiq bo‘lgan maqolalar, tarjima asarlar va badiiy asarlar hamda o‘zining she’rlaridan iborat bir qator kitoblarga egalik qiladi. Uning ilmiy tadqiqotlariga nafaqat Markaziy Osiyo hududida balki, Yevropa, Osiyo va hatto Afrika hududlaridagi sharqshunoslarning ham ilmiy qiziqishini uyg‘otgan U faqatgina tarjimon bo’lib qolmay balki, bir qancha tarjima asarlarning vujudga kelishiga sababchi bo‘lgan shaxs edi.

Shoislom Shomuhamedovning tarjimon sifatidagi faoliyati 1950-yillari O‘rta Osiyo davlat universitetining sharq fakultetida tahsil olayotgan davrlaridan boshlangan. U faoliyati davomida Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Firdavsiy, Bedil, Umar Xayyom va Sadiyning “Guliston” va “Bo‘ston” singari asarlarini tarjima qilib, nashr qildirgan. Bu kabi mumtoz asarlarni o‘zbek xalqiga tanishtirdi. Uning eng mashhur tarjima asari Firdavsiyning “Shohnoma” asari bo‘ldi. “Shohnoma” asarini ilk bor o‘zbek tiliga aynan Shoislom Shomahmudov tomonidan tarjima qilingan. O‘tgan asrning 70-yillari oxirida «Shohnoma»ning 3 kitob hajmidagi tanlangan boblari o‘zbek tilida bosilib chiqdi. Birinchi kitob tarjimoni Sh. Shomuhamedov, qolgan ikkita kitobni Nazarmat, J. Jabborov va G‘. G‘ulom tarjima qilgan edilar[2]. Iste’dodli olim va tarjimonning Firdavsiy “Shohnoma”si ustida olib borgan ijodiy mehnati, tashkiliy ishlari ayniqsa tahsinga loyiq. Jahon she’riyatining durdonasi, ulug‘ shoirning o‘ttiz yillik mehnati mahsuli bo‘lgan bu adabiy yodgorlikni bir necha yil ichida o‘zbek kitobxoniga yetkazish uchun Shoislom Muhamedov kabi insonning mehnati kerak edi. Olim kecha-kunduz ishlab, Mirtemir, Hamid G‘ulom, Jumaniyoz Jabborovlarga ham tinchlik bermay qilgan say-harakatlari natijasi bo‘lib, Firdavsiyning “Shohnomasi” o‘zbek tiliga tarjima qilindi. “Shohnoma” bitilgan vazn – mutaqorib jangovar shiddat barobarida harbiy mashqlar o‘ynoqligi aks etgan vazn. “Saddi Iskandariy” shu vaznda yozilgan. Shoislom Shomuhamedovning aruz va barmoq vaznlarida tarjimalar qilib orttirgan tajribasi “Shohnoma”ni o‘girishda qo‘l keldi. Mutaqorib vaznining o‘n bir hijo barmoq vazniga yaqinligidan foydalanib “Shohnoma” tarjimasida shunday yo‘l tanlandiki, dostonni aruz vaznida ham, barmoq vaznida ham o‘qish mumkin. Bu ish bilimdonlik barobarida katta mahoratni ham talab etadi[3]. Shoislom Shomuhamedov tomonidan “Shohnoma” singari yana ko‘plab asarlar tarjima qilingan. U tarjima qilish uchun asarlarni shunchaki tanlab olmay balki, eng sara mumtoz adabiyotlarga, bugungi kun uchun qiziq bo‘lgan, ibratli asarlarga murojaat qilardi. Bu orqali xalqni boshqa bir xalqning eng sara adabiyotlari bilan tanishtirishni xoxlardi. Olimning yana bir ajoyib tarjimasi Umar Hayyomning ruboiylari bo‘ldi. Barcha tarjima

[1] Umarov F., Hamidov H. Ilm, ijod fidoiysi // Shoislom Shomuhamedov zamondoshlari xotirasida: – Toshkent: Chashma Print nashriyoti.2009. – B. 24

[2] Komilov N. Ilm, Ijod peshvosi// Shoislom Shomuhamedov zamondoshlari xotirasida – Toshkent: Chashma Print nashriyoti.2009. – B. 39

[3]Vohidov E. Ezgulikka yo‘g‘rilgan hayot // Shoislom Shomuhamedov zamondoshlari xotirasida: – Toshkent: Chashma Print nashriyoti.2009. – B. 15

asarlari ichida bu kitob alohida ahamiyatga ega. Chunki Umar Hayyomning ruboiylarini tarjima qilish juda ko‘p mehnat talab qilgan. Xayyom o‘z ruboiylarining ko‘pini maxsus, alohida daftar va hatto alohida sahifaga ham yozmagan ekan. Ularning ko‘pi olim Umar Xayyom tadqiqotlarining hoshiyalariga, ilmiy izlanishlardan toliqqan yoxud badiiyat ummoniga cho‘mish chog‘larida bitilgan ekan. Bu ruboiylarda asardagi g‘oya-mazmundan tashqari, Umar Xayyom ruhiyati, qalbi, azobli izlanishlaridagi tafakkur dunyosi aks etadi[4].Shoislom Shomuhamedov ruboiylarni bir necha marotaba tarjima qilgan. Har biri bir-biridan farq qilgan. Ikkinchi marotaba tarjimaga kirishganda birinchisiga nisbatan kengroq va aniqroq tarjima qilgan. Bunga uning vaqt o‘tishi bilan orttirgan tajribasi sabab bo‘lgan

Masalan, 1958 yilgi nashrida Xayyom ruboiylaridan biri quyidagicha o‘girildi:
Bizga gul tegmasa, o‘t ham yetarli,
Nur agar yetmasa, o‘t ham yetarli,
Janda tun, xonaqoh, shayxlik bo‘lmasa,
Qo‘ng‘iroq-u cherkov, but ham yetarli.
To‘plamning 1991 yilgi nashrida shu ruboiyning Shoislom Shomuhamedov tarjimasida quyidagi yangi varianti berildi:

Bizga gul tegmasa, tikan-xor ham bas,
Nur yetmasa, olov, gulxan-nor ham bas,
Janda tun, xonaqoh yo shayx bo‘lmasa,
Qo‘ng‘irog‘u cherkov va zunnor ham bas[5].

Olimning keyingi tahrirdagi tarjimasi birinchisiga nisbatan ancha mukammalroq bo‘lsada, ko‘pchillik tomonidan birinchi tarjimaga nisbatan yaxshi munosabat bildirishadi. Shoislom Shomuhamedovning tarjimalari sababli o‘zbek xalqi mana shunday nodir durdona asar bilan tanishdi. Uning tarjimais orqali nafaqat o‘zbek xalqi balki, boshqa xalqlarning ham bu noyob asar bilan tanishish imkoni bo‘ldi. Chunki ruboiylarning o‘zbekcha tarjimasidan foydalangan holda qozoq, qirg‘iz, turkman, uyg‘ur va tatar kabi tillarga ham tarjima qilishdi.

Xulosa qilib aytganda, Umar Xayyom ruboiylari bilan, Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asari bilan, Abdurahmon Jomiyning ijodi, xususan “Iskandar xiradnomasi” asari bilan, Mirzo Abdulqodir Bedilning teran badiiy mushohada etiladigan murakkab asarlari bilan, Sharq bulbuli Hofiz Sheroziy, Sa’diy Sheroziy, Amir Xusrav Dehlaviy kabi ulkan siymolar ijodi bilan yaqindan tanishish va bu ijodlarning mazmun-mohiyatini anglashda Shoislom Shomuhamedovning xizmatlari katta bo‘ldi[6]. Bu kabi nodir asarlar nafaqat xalqning merosini boyitdi balki, ma’naviyatini oshirish uchun ham xizmat qildi. Uning bu kabi katta ilmiy faoliyatini u bilan bir davrda yashagan yetuk adabiyotshunos olimlar tomonidan yuksak baho berishgan. Xususan, Pirimqul Qodirovning “Kul va qalb”, Mirtemirning “Yetuklik”, Vyacheslav Kostiryaning “Savodsizlik – majruhlik”, Erkin Vohidovning “Tolmas targ‘ibotchi”, Keldi Qodirovning “Olimning baxti” maqola va ocherklarida Shoislom Shomuhamedov hayoti, ijodi va serqirra faoliyati haqida keng ma’lumot berilgan[7]. Shoislom Shomuhamedovning keng

[4] Nazarov B. Zabardast Sharqshunos // Shoislom Shomuhamedov zamondoshlari xotirasida: – Toshkent: Chashma Print nashriyoti.2009. – B. 19

[5] Nazarov B. Zabardast Sharqshunos// Shoislom Shomuhamedov zamondoshlari xotirasida: / Mas’ul muharrir Minxojiddin Xaydar. – Toshkent: Chashma Print nashriyoti.2009. – B. 20

[6] Umarov F., Hamidov H. Ilm, ijod fidoyisi// Shoislom Shomuhamedov zamondoshlari xotirasida:– Toshkent: Chashma Print nashriyoti.2009. – B. 27

[7] Komilov N. Ilm, Ijod peshvosi// Shoislom Shomuhamedov zamondoshlari xotirasida: – Toshkent: Chashma Print nashriyoti.2009. – B. 50

qamrovli ilmiy faoliyati bugungi kunda ham tarjimashunoslik, adabiyot va tarix sohasi uchun muhim ilmiy va manaviy me’ros hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Umarov F., Hamidov H. Ilm, ijod fidoiysi // Shoislom Shomuhamedov zamondoshlari xotirasida: – Toshkent: Chashma Print nashriyoti. 2009. – 159 b.
2. Komilov N. Ilm, Ijod peshvosi// Shoislom Shomuhamedov zamondoshlari xotirasida – Toshkent: Chashma Print nashriyoti. 2009. – 159 b.
3. Vohidov E. Ezgulikka yo‘g‘rilgan hayot // Shoislom Shomuhamedov zamondoshlari xotirasida: – Toshkent: Chashma Print nashriyoti. 2009. – 159 b.
4. Nazarov B. Zabardast Sharqshunos // Shoislom Shomuhamedov zamondoshlari xotirasida: – Toshkent: Chashma Print nashriyoti.2009. – 159 b.
5. Mannonov A.M. Shoislom Shomuhamedov tavalludining 100 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent., TDShU, 2021. – B. 3– 14.